ISNN 3030-3907

2026/4
VOLUME 2

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 2

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

HOMILA CHANOG‘I BILAN OLDINDA YOTISHIDA HOMILA VAZIYATINI O‘ZGARTIRISH USULLARINI O‘RGANISH

F.N. Atayeva
Samarqanda Davlat Tibbiyot Universiteti, Samarqand, O‘zbekiston
R.U. Turaqulova
Samarqanda Davlat Tibbiyot Universiteti, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya. Homilaning chanog‘i bilan yotishi akusherlik amaliyotida dolzarb muammo bo‘lib, u perinatal kasallanish va o‘lim ko‘rsatkichlarining oshishi bilan bog‘liq. Ushbu holatning rivojlanishida bachadon anomal tuzilmalari, homila harakatchanligining buzilishi, tor chanoq, katta homila, platsentaning past joylashuvi, muddatidan oldingi tug‘ruq va onaning yoshi muhim ahamiyatga ega. Muddatiga yetgan homiladorliklarda homilaning chanoq bilan yotishi 3–5% hollarda uchraydi, muddatidan oldingi tug‘ruqlarda esa tez-tez kuzatiladi. So‘nggi yillarda homila vaziyatini o‘zgartirishga qaratilgan gimnastik mashqlar profilaktik usul sifatida qo‘llanilmoqda, ammo ularning samaradorligi turlicha baholanadi.

Kalit so‘zlar: homilaning chanog‘i bilan yotishi; akusherlik; perinatal xavf; xavf omillari; profilaktika.

Аннотация. Тазовое предлежание плода является актуальной проблемой акушерства, ассоциированной с повышенным риском перинатальной заболеваемости и смертности. К основным факторам риска относятся аномалии матки, нарушение подвижности плода, узкий таз, крупный плод, низкое расположение плаценты, преждевременные роды и возраст матери. Частота тазового предлежания при доношенной беременности составляет 3–5, увеличиваясь при преждевременных родах. В последние годы для профилактики применяются специальные гимнастические упражнения, однако их эффективность остается предметом дискуссий.

Ключевые слова: тазовое предлежание плода; акушерство; перинатальный риск; факторы риска; профилактика.

Annotation. Breech presentation remains a relevant obstetric problem associated with increased perinatal morbidity and mortality. Key risk factors include uterine anomalies, impaired fetal mobility, narrow pelvis, macrosomia, low placental location, preterm birth, and advanced maternal age. Breech presentation occurs in 3–5% of term pregnancies, with higher rates in preterm deliveries. In recent years, special physical exercises have been used to prevent breech presentation, though their effectiveness varies across studies.

Keywords: breech presentation; obstetrics; perinatal risk; risk factors; prevention.

KIRISH.

ISSN 3030-3907

Muammoning dolzarbligi: Homilaning chanog‘i bilan oldinda yotishi akusherlik amaliyotida eng dolzarb va murakkab muammolardan biri hisoblanadi, chunki bu holat yuqori perinatal kasallanish va o‘lim darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Homilaning chanog‘i bilan oldinda yotishi (chanoq old kelishi) uchrash chastotasi nisbatan past bo‘lib, shunga qaramay, perinatal o‘lim ko‘rsatkichi bosh bilan kelishga nisbatan 4–5 baravar yuqoridir. Homilaning chanog‘i bilan oldinda yotishida tug‘ruq jarayoni ko‘pincha cho‘zilgan holatda kechadi va bir qator asoratlarni yuzaga keltirishi mumkin. Bu asoratlarga quyidagilar kiradi: homila qo‘g‘anoq pufagining erta yorilishi, kindik tizimchasining qisilishi yoki tug‘ruq yo‘llariga tushib qolishi, homila qo‘llarining orqaga qayrilib ketishi, boshning noto‘g‘ri yozilishi, homila tanasi yoki bo‘ynining qisilib qolishi. Shu sababli homilaning chanog‘ bilan oldinda yotishi vaziyatidagi tug‘ruqlar patologik tug‘ruqlar guruhiga kiradi. Ushbu tug‘ruq holati homila va ona uchun jiddiy xavflar tug‘diradi hamda maxsus yondashuv va ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Homilaning chanog‘i bilan oldinda yotishi barcha muddatiga yetgan homiladorliklarning 3–5% ida uchraydi. Muddatidan oldingi tug‘ruq xavfida bu ko‘rsatgich oshib boradi: 32-haftalik homilalarning 7% ini, 28-haftalik yoki undan avval esa 25% ini tashkil etadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, birinchi homiladorlikda homilaning chanoq bilan oldinda yotishi holatidan so‘ng, ikkinchi homiladorlikda bu holatning takrorlanish ehtimoli taxminan 10% ni tashkil etadi. Uchinchi homiladorlikda esa bu ko‘rsatkich 27% gacha oshadi. Bundan tashqari, avvalgi kesarcha kesish operatsiyasi ham keyingi homiladorliklarda homilaning chanoq bilan joylashish ehtimolini ikki baravar oshirishi mumkinligi haqida ma’lumotlar olimlarning tadqiqotlari asosida o‘rganilgan.

Homilaning chanoq bilan joylashuviga olib keluvchi asosiy xavf omillari quyidagilardan iborat: bachadonning anomal tuzilmalari (egar shaklidagi, ikki shoxli va boshqa rivojlanish nuqsonlari), homila harakatchanligining buzilishi (bu holat ko‘pincha ko‘p suvlilik, kam suvlilik yoki ko‘p homilalikda yuzaga keladi), tos suyaklarining torligi, kichik chanoq a’zolari sohasida joylashgan o‘smalar (tuxumdon, bachadon yoki boshqa a’zolarning neoplazmalari), katta o‘lchamdagi homila, homilaning tug‘ma rivojlanish anomaliyalari, platsentaning oldingi devorga yoki past joylashuvi. Homilaning chanoq bilan oldinda yotish ehtimolini oshiruvchi muhim sabablarga esa: muddatidan oldingi tug‘ruq, birinchi tug‘ruq, onaning yoshi (35 yoshdan katta), qandli diabet bilan kasallanish holatlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

So‘nggi yillarda homilaning chanog‘i bilan yotishini oldini olish va uning asoratlarini kamaytirishga qaratilgan tadqiqotlar va amaliyotlar kengaymoqda. Akusherlik amaliyotida homilaning chanoq bilan oldinda yotishini oldini olish va

ISSN 3030-3907

bosh bilan kelishini rag‘batlantirishga qaratilgan tadbirlar majmuasi ishlab chiqilgan. Ulardan biri turli gimnastik mashqlar orqali homila vaziyatini o‘zgartirish usullari hisoblanadi. Turli gimnastik mashqlar komplekslari homiladorlikning 30–34 haftalarida homilaning bosh bilan joylashuvini rag‘batlantirish maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu mashqlar tos suyagi va bachadon sohasining to‘g‘ri shakllanishini ta’minlashga, homilaning harakatchanligini yaxshilashga yordam beradi. Biroq, gimnastik mashqlar samaradorligi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, uning natijalari turli tadqiqotlarda turlicha baholangan. Masalan, yaqin yillargacha klinik tadqiqotlar va kuzatuv ishlari natijalariga ko‘ra, homilaning chanoq bilan oldinda yotishida gimnastik mashqlarning samaradorligi 70-80 % atrofida baholanadi. Ayrim mualliflar homiladorlikning 30–34 haftalarida maxsus pozitsion mashqlarni bajargan homilador ayollarda homilaning bosh bilan joylashuviga o‘tish chastotasi nazorat guruhiga nisbatan asosiy guruhda ishonchli darajada yuqori bo‘lganini qayd etishgan. Biroq boshqa tadqiqotlarda ushbu farq statistik jihatdan ahamiyatli emasligi ko‘rsatilgan.

Ilmiy adabiyotlarga ko‘ra, gimnastik mashqlarning samaradorligi bir qator aniq omillarga bog‘liq. Jumladan, homiladorlik muddati (30–34 haftagacha bo‘lgan davrda homila harakatchanligi yuqori bo‘lishi), amniotik suyuqlik miqdori (normal yoki ko‘paygan bo‘lishi), bachadon tonusi, yo‘ldoshning joylashuvi hamda homilaning massasi muhim ahamiyatga ega. Ko‘p tug‘ruqli ayollarda bachadon devorlarining nisbatan elastik bo‘lishi sababli mashqlarning samaradorligi yuqoriroq ekanligi qayd etilgan. Shuningdek, biomexanik nuqtai nazardan, gimnastik mashqlar bachadon bo‘shlig‘idagi og‘irlik markazining o‘zgarishiga olib keladi. Ayol tanasining ma’lum holatlarda (masalan, tizza–tirsak yoki yonbosh holatlarida) bo‘lishi natijasida homilaning chanoq qismi bachadon tubidan chetlanadi va bu bosh qismini pastga yo‘naltiriladi. Bu esa homilaning bosh bilan joylashuvini egallashi uchun qulay sharoit yaratadi. Biroq ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, gimnastik mashqlar har doim ham mustaqil va yetarli usul hisoblanmaydi. Bachadonning anatomik nuqsonlari, kindik ichagi qisqaligi, yo‘ldoshning past joylashuvi, homilaning rivojlanish nuqsonlari yoki bachadon gipertonusi mavjud bo‘lgan holatlarda mashqlar samarasiz bo‘lishi mumkin. Shu sababli, ko‘plab klinik tavsiyalarda gimnastik mashqlar yordamchi profilaktik usul sifatida, akusher-ginekolog nazorati ostida va individual ko‘rsatmalar asosida qo‘llanishi lozimligi qayd etilgan.

Klassik akusherlikda homilaning chanoq bilan oldinda yotishini oldini olish va uni bosh bilan kelishga o‘zgartirishga qaratilgan tadbirlar majmuasidan yana biri tashqi akusherlik burish usuli hisoblanadi. XIX asr oxirida rus akusheri B.A.

ISSN 3030-3907

Arxangelskiy tomonidan homilani tashqi akusherlik yo‘li bilan boshga burish usuli taklif qilingan bo‘lib, bunda qo‘l usullari yordamida, qorin old devori orqali homila chanoq kelishidan bosh kelishiga o‘tkaziladi. Uzoq vaqt davomida tashqi akusherlik burilishi usuli ko‘plab asoratlar sababli qo‘llanilmagan. Bu holat homila holatini burishdan oldin, jarayon davomida va undan keyin yetarli darajada ultratovush nazorati va monitoring imkoniyatlarining yo‘qligi bilan bog‘liq edi. Shuningdek, bemorlarni to‘g‘ri tanlash mezonlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan edi. Natijada ushbu usul uzoq yillar davomida amaliyotdan chiqarilgan.

Hozirgi vaqtda isbotlanganki, homiladorlik to‘liq muddatida (37 haftadan keyin) barcha ko‘rsatmalar va qarshi ko‘rsatmalar hisobga olingan holda bajarilgan tashqi akusherlik burilishi chanoq bilan kelishda tug‘ruqni olib borishning (tabiiy tug‘ruq yo‘li yoki kesarcha kesish) xavfsiz muqobili hisoblanadi. Jarayonni o‘tkazishdan oldin tabiiy tug‘ruq yo‘li orqali tug‘dirishga qarshi ko‘rsatmalar yo‘qligi, tos suyagi o‘lchamlarining normal bo‘lishi, yo‘ldoshning normal joylashuvi va amniotik suyuqlik miqdorining yetarliligi aniqlanishi lozim. Manipulyatsiya ushbu texnikani mukammal biladigan akusher-ginekolog tomonidan, yozma ravishda olingan xabardorlik va ixtiyoriy rozilik asosida va tug‘ruq boshlanishidan oldin amalga oshiriladi. Bunda homiladorlik bir homilali, asoratsiz bo‘lishi kerak: birinchi marta tug‘ayotgan ayollarda 36 haftadan, qayta tug‘ayotgan ayollarda esa 37 haftadan boshlab bajariladi. Muolajani bajarish uchun majburiy sharoitlar quyidagilardan iborat: II–III darajali akusherlik muassasasida anesteziologik va neonatologik xizmatning mavjudligi, ekspert darajadagi UTT nazorati hamda zarurat tug‘ilganda shoshilinch kesarcha kesish imkoniyati mavjud bo‘lishi kerak.

Quyidagi holatlarda homilani tashqi yo‘l bilan boshga burish tavsiya etilmaydi: homila qo‘g‘anoq pufagining yorilishi, ona–yo‘ldosh–homila tizimida qon oqimi buzilishlari (Dopplerometriya bo‘yicha), kardiotokografiya (KTG) ko‘rsatkichlarining buzilishi, homila rivojlanishining orqada qolishi, kindik arteriyasida qon oqimi buzilishi, homiladorlikning ikkinchi yarmidagi qon ketishlar, bachadon va uning qo‘shimchalarining anomaliyalari yoki o‘smalari, ko‘p homilalik (birinchi homila tug‘ilgandan keyin ikkinchi homilani burish bundan mustasno), bachadonda chandiq mavjudligi, homilaning og‘ir tug‘ma nuqsonlari, homila boshining yozilgan holati, homilaning nobud bo‘lishi, preeklampsiya yoki ayolda arterial gipertenziya, kam suvlilik, ko‘p suvlilik va homilaning beqaror joylashuvi.

Bu manipulatsiyaning muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlovchi omillarga quyidagilar kiradi: yuqori paritet, homilaning sof dumba bilan kelishi, semizlikning

ISSN 3030-3907

yo‘qligi, homila boshining qorin orqali aniq paypaslab aniqlanishi, yo‘ldoshning bachadon orqa yoki yon devorlarida joylashishi, amniotik suyuqlik indeksi 10 sm dan yuqori bo‘lishi.

Tashqi akusherlik burilishi vaqtida asoratlar kelib chiqish xavfi mavjud bo‘lib, ular qatoriga amniotik suyuqlik emboliyasi, tug‘ruqdan oldin homila suvlarining ketishi, bachadon yorilishi, normal joylashgan yo‘ldoshning muddatidan oldin ko‘chishi va homila distresi kiradi. Turli ma’lumotlarga ko‘ra, barcha shartlar, ko‘rsatmalar va qarshi ko‘rsatmalar qat’iy bajarilganda, homilani boshga tashqi burish samaradorligi yuqori bo‘lishi aniqlangan.

Shunday qilib, yuqorida aytib o‘tilgan usullar homilaning chanoq bilan yotishini oldini olishga yordam beradi, ayniqsa homila vaziyatini o‘zgartiruvchi maxsus gimnastik mashqlar fiziologik, invaziv bo‘lmagan va nisbatan xavfsiz usul hisoblanadi, biroq ularning samaradorligi homiladorlikning individual xususiyatlari va klinik holatiga bevosita bog‘liqdir. Shu bois, ushbu usullarni qo‘llash kompleks yondashuv, ya’ni muntazam ultratovush nazorati, shifokor maslahatlari va zarurat tug‘ilganda boshqa akusherlik usullari bilan birgalikda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi usullar mamlakatimizda va dunyoning boshqa davlatlarida tobora keng qo‘llanilmoqda. Metodika klinik tavsiyalarga kiritilgan bo‘lib, chanoq bilan kelishda kesarcha kesishlar sonini kamaytirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Брега Л.Б., Григус І.М. Анализ возможности физической реабилитации при тазовых предлежаниях и неправильных положениях плода во время беременности // Проблемы физического здоровья и спорта -№ 4. -2011. [с. 31-34]

2. Брехман Г.И. Тазовое предлежание плода как генетико-психологический феномен // Журналь Акушерства Женскихъ Болъзней. -2015. -Т.64. Вып.4. [с. 26-31]

3. Гайдуков С.Н. Очерки акушерской патологии. Руководство для врачей и студентов. СПб.: Изд. ГПМА; 2002. [с. 372]

4. Гайдуков С.Н., Клюс О С., Резник В.А., Васильев В.В. Должен ли стать общепринятой практикой наружный профилактический поворот при тазовом предлежании плода // Журнал акушерство и женских болезней. -2007. -Т.56. -Вып.2. [с. 105-110]

5. Гуркин Ю.И. Тазовое предлежание плода (клинико-морфологические параллели) // Под ред. Н.В. Кобозе-вой. Л., 1982. [с. 70-74]

ISSN 3030-3907

6. Двойни, задержка роста плода, тазовое предлежание: как улучшить исходы [недостаточно данных: нет автор и конкретный журнал]. [с. 51-55]
7. Ишпахтин Г.Ю., Щепин М.М., Елисеева Е.В. Медикаментозное Воздействие Во Время Беременности При Тазовом Предлежании Плода // Бюллетень Иснц Со Рамн, N.4(42). -2005. [с. 73]
8. Кан Н.Е. Состояние внутриутробного плода и ранняя адаптация новорожденных в зависимости от пола и предлежания плода: Автореф. дис. канд. мед. наук. Владивосток, 2000. [с. 23]
9. Каримова, Н., Мардонова, З., Дустова, Н. Ведения родов при тазовом предлежании плода в современном аспекте // Журнал проблемы биологии и медицины / -Т. 1 (68) -2012 [с. 73]
10. Каттаходжаева М.Х., Сафаров А.Т., Умаров З.М., Сулаймонова Н.Ж. Влияние Перинатальных Показателей На Тазовое Предлежание Плода // Ежеквартальный Научно–Практический Журнал / Journal Of Reproductive Health And Uro-Nephrology Research N-2 [с. 49 -52]
11. Катько Е.Н. Особенности течения раннего неонатального периода при рождении плода в тазовом предлежании: Автореф. дис. канд. мед. наук. М., 1998. [с. 19]
12. Клинические протоколы (акушерство) / А.А. Шмидт, Т.К. Тихонова, Д.И. Гайворонских [и др.]. СПб.: СпецЛит; 2016. [с. 255] elibrary.ru
13. Кобозева Н.В. Тазовое предлежание в современном акушерстве. Тазовое предлежание плода (клинико-морфологические параллели). Сб. научных трудов. Под ред. Н.В.Кобозевой. Л.; 1982 [с. 5–11]
14. Кобозева Н.В. Тазовое предлежание плода. Л., 1989. [с. 96]
15. Кон Ю.И. "Тазовое предлежание // Вестник хирургии Казахстана №3, 2012 ГККП РД № 4 [с. 75-76]

ISSN 3030-3907